

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING JAHON MAYDONIDA TUTGAN O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8310675>

Jasurbek Pulatov

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro Munosabatlar kafedrasi o'qituvchisi*

Abstrakt

Bugungi Zamonaviy dunyoda davlatlar, turli tuzilmalar va alohida liderlar o'rtasida bilvosita va bevosita qarama – qarshiliklar mavjud bo'lsada, xalqaro munosabatlarda mavjud bo'lgan tartiblarni hurmat qilish va o'zaro aloqalardagi "oltin oraliq" (balans) ni saqlab qolish eng ahamiyatga molik hodisa hisoblaniladi.

Jahon siyosatida davlatlar o'z manfaatlari yo'lida har qanday vositalardan foydalanishlari va kerak bo'lsa, qonun – qoidalardan chekingan holatda faoliyat yuritishlari ham tabiiy.

Biroq, bunday holatda o'zaro belgilab olingan me'yorlar, munosabatlardagi balans buzilishiga olib kelinadi. Balans buzilishi, uni buzgan tomon uchun ma'lum bir vaqt davomida foyda keltirsada, keyinchalik aks ta'sir ko'rsatishi, xalqaro munosabatlardagi yangi o'yinchilarning ham shu holatga intilishi, tartibsizlik, yakdil bir yechimga kelina olmaslik natijasida xaos kelib chiqishini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar

Xalqaro Munosabatlar, Oltin balans, Turkiy davlatlar tashkiloti, Globalizatsiya

Xalqaro munosabatlarda xaosning kelib chiqishi, anarxizmning avj olishiga, tinchlik va birodarlik tamoyillariga putur yetishiga va hatto, navbatdagi jahon urushining kelib chiqishiga, insoniyat boshiga yana bir bor og'ir savdolar tushishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois, jahon siyosatida o'z o'rniiga ega bo'lgan davlatlarning aloqalardagi balansni saqlay olishlari va boshqa davlatlarni ham bunga majbur ettirishlari lozim bo'ladi.

Xalqaro munosabatlarda balansning buzilishi oqibatlariga nazar solinadigan bo'linsa, XX asrning birinchi yarimida birinchi jahon urushi yakuniga yetgach, tartibni saqlash va tinchlikni ta'minlash, davlatlar o'rtasida "oltin oraliq" ni ushlay olish maqsadida tashkil etilgan Millatlar ligasi, Fransiya va Buyuk Britaniyaning tashqi siyosatini dastaklovchi tuzilmaga aylanganligi bois, jabr ko'rgan davlatlar – Germaniya va Italiyada o'ch olish kayfiyatini yuzaga kelishiga, ular tomonidan har qanday vositani ishga solgan holda, jahon siyosatida yetakchi mavqega erishish uchun intilishlari natijasida, XX asrning 30 yillaridan boshlab Xalqaro munosabatlar sohasida patsifistik harakat poyoniga yetgan ekanligi namoyon bo'ladi. Oqibatda esa, fashistik Germaniya, Italiya va ularga qo'shilgan Yaponiya

davlatlarining olib borgan xatti-harakatlari insoniyat boshiga yana bir fojeali davrni kirib kelishiga zamin yaratilishiga olib kelinadi.

Ikkinci jahon urushi yakuniga yetgani hamonoq, yuzaga kelgan ikki qutbli dunyo tizimi ma'lum bir ma'noda jahon siyosatida balansning ta'minlanishiga olib kelishi kutilgan bo'lsada, ayni shu "Ikki qutb" lar orasida (AQSh va SSSR) boshlangan sovuq urush yangi qarama-qarshilikning namoyon bo'lishini yuzaga keltirgani ayni haqiqatdir.

"Sovuq urush" yakuniga yetishi, xalqaro munosabatlar sohasida yetakchilikni qo'lga olgan AQSh tomonidan o'z hukmronligini va ta'sirini o'tkazish uchun olib borgan siyosati, oqilona yechim bo'lishdan ko'ra salbiy oqibatlar olib kelganligi bugungi kunda ham o'z tasdig'ini topmoqda.

Afg'onistonda terroristik harakat vakillarini tor-mor qilish maqsadida kiritilgan qo'shin, 20 yillik faoliyati davomida aytarlik xech qanday yutuqqa erishmaganligi, aksincha, AQSh uchun ham talofotli bo'lib, juda ham ko'plab harbiy texnika yoqotilganligi, minglab askarlarning halokati, byudjeddan milliardlab, trillionlab mablag'larning behuda sarf bo'lganligi, kichik Jorj Bush boshlagan siyosat naqadar puxta ishlab chiqilmagan, foydasiz ketgan 20 yillik meros sifatida baholaniladi. AQShning Afg'onistonga qo'shin kiritishi Afg'oniston uchun ham 1978-yildan to'xtamayotgan urushning yana 20 yildan ortiq davom etishi va tinchlik tushunchasi aholi uchun erishilmas bir orzu bo'lib qolganligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy dunyo qarama-qarshiliklarida fors ko'rfazi, Sahroi kabir, Afrika shimoliy qismi hududlaridagi holatlar xususan, Arab bahori voqealariga e'tibor qaratilsa, birgina Liviya davlatida tuzumni o'zgartirish natijasi teskari oqibat olib kelganligi, Muammar Kaddafi hukumati ag'darilishi, ichki siyosatda balansning buzilishi yuz bergenligini ko'rsatmoqda. Tinchlikni ta'minlanishi va yuksak taraqqiyot vada qilingan inqilob natijasida Liviya bugungi kunda norasman tarzda 3 ga bo'linib ketganligini kuzatish mumkin.

Zamonaviy dunyoda ikki qarama-qarshi tomonlarning munosabatlarida balans inobatga olinmasligining salbiy oqibatlaridan biri sifatida, AQSh o'ziga potensial raqib bo'lishi ehtimoli bo'lgan davlatlarni bir tartibda ushlab turish uchun turli vositalar, sanksiyalar qo'llashi, xalqaro aloqalarda bosim o'tkazishi natijasida o'ziga raqib bo'lganlarning o'zaro ittifoqchi bo'lishiga ham zamin yaratilishiga olib kelganligini kuzatish mumkin.

Suriyadagi urushda qatnashuv, Qrimning anneksiya qilinishi, Gruziya ichki ishlariga aralashuv, Ukrainianing hududiy yaxlitligiga tahdid singari voqealar zamirida Rossiyaga kiritilgan sanksiyalar, Rossiyaning bu holatda yechim izlashiga, "inqirozli diplomatiya" yo'nalishida faoliyat olib borishiga, AQSh siyosatidan jabr chekayotgan davlatlar bilan juda iliq munosabatlar o'rnatilishiga olib kelinganligining eng cho'qqisi sifatida, AQSh tomonidan Xitoyning rivojlanishiga qarshi qaratilgan turli to'siqlar natijasida Xitoy hukumatining "sanksiya" ichida yashayotgan davlatlar bilan birinchi galdag'i munosabatlar olib

borishi, kamiga AQSh ittifoqchilari bo'lgan G'arbiy Yevropa davlatlarini ham o'z tomoniga og'dira olish xususiyatini shakllantira olganligi, Xitoy Xalq Respublikasining jahon siyosatida o'yinchi emas, hakamlik darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatmoqda.

Barbara Takman aytganidek, mavjud vaziyatni hisobga olmagan holda, tarixiy o'ziga xoslikni xalqaro munosabatlarda targ'ib etish, kelgusida misli ko'rilmagan katta yoqotishlarga debocha vazifasini o'tab berishi, Jahon siyosati olib borilayotganda o'rtadagi balans katta ahamiyat kasb etishi kerakligini hayotiy zaruriyatga aylantiradi.

Bugungi kun nuqtai nazari bilan yondashilsa, o'zaro munosabatlardagi balans bilan bir qatorda, Rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida ham axboriy marginalizatsiyani transmilliyashtirish masalalarida ham nizolar ko'zga tashlanmoqda.

Bu hodisa shu bilan izohlanadiki: rivojlangan davlatlarda o'rtacha umr ko'rishning uzunligi bilan bir qatorda, tug'ilish soni, rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan past bo'lsada, oziq-ovqat va boshqa (masalan: energiya, yer osti va usti boyliklari) resurslar ishlatalishining miqdori yuqoriligi ikki tomonda qarama - qarshilikning yangi ko'rinishda namoyon bo'layotganini bildiradi.

Turli mintaqalardagi mahalliy va mintaqaviy nizolar, diniy qarama-qarshiliklar, rivojlanish tendensiyalari o'rtasida kurashlar, dunyo boshqaruva tartibini egallash borasidagi yirik davlatlar raqobati va boshqa turli hodisalar XXI asr ham insoniyatga avvalgi asrlardan bir qator o'ziga xos "meros" qoldirishini to'liq namoyon etadi.

Markaziy Osiyo hududi uzoq muddat davomida sobiq Ittifoq tarkibida bo'lganligiga qaramasdan, bugungi kunda yirik davlatlarning asosiy e'tibor markazlaridan biri sifatida harakterlanmoqda.

Resurslarning ko'pligi va xilma-xilligi, tarixiy o'ziga xoslik, xalqlar o'rtasidagi totuvlik va juda katta imkoniyatlar mavjudligi yuzasidan Markaziy Osiyoga Rossiya, Xitoy va albatta, AQSH boshchiligidagi G'arb davlatlari o'z maqsad va vazifalaridan biri sifatida har qanday ko'rinishda bu hududlar ichki va tashqi masalalarida faol ishtirok etishga e'tibor qaratishlari, jahon siyosiy shaxmat taxtasida yangi o'yin avj olishidan dalolat beradi.

Xalqaro Munosabatlar sohasidagi asosiy o'yinchi davlatlarning Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishlari va o'z manfaatlari doirasi sifatida qarashlari, mintaqalarning jadal rivojlanishi bilan birgalikda katta xavf ostida qolishlariga ham olib keladi. Imperialistik yondashuvlar, iqtisodiy "beg'araz" yordamlar, turli axboriy hujumlar, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarning chigallashuviga va hatto, keskinlashuviga ham sabab bo'ladi.

Markaziy Osiyo davlatlarni tarixiy o'ziga xosliklarini inobatga olgani holda, o'zaro aloqalarni mustahkamlashda urf-odatlar va til asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tojikiston Respublikasidan farqli ravishda, mintaqaning qolgan davlatlari o'zaro bir til oilasida so'zlashuvlari, qardosh xalqlarning birlashuviga zamin yaratishi ayni haqiqatdir.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlangan birlashuvga bo'lgan urinishlar, XXI asrning ikkinchi dekadasi oxiri va uchinchi dekadasi boshida yangi ko'rinish va talqinda namoyon bo'layotgani Turkiy tilli davlatlar kengashi doirasida mintaqal xalqlari o'zaro jipslashayotganliklaridan dalolat bermoqda.

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston davlatlarida hokimiyatlarni demokratik tamoyillar asosida almashinushi, yangi kelgan rahbarlarning o'zaro aloqalarni mustahkamagan holda o'z mustaqilliklari bilan bir qatorda mintaqaning ham turli ta'sir doiralarga tushib qolishidan saqlashga harakat qilayotganliklarini kuzatish mumkin.

Aloqalarning bu qadar shiddat bilan rivojlanishi O'zbekiston Respublikasida davlat tepasiga Shavkat Mirziyoyev kelganligi bilan ham bevosita bog'lash mumkin. O'zbekiston yetakchisi o'z tashqi siyosatida asosan qardosh xalqlarga katta urg'u berayotganligi, yaqin kelajakda Yevropa Ittifoqining muqobilini yaratishga har jihatdan boshqa mintaqalar emas, aynan, Markaziy Osiyo mintaqasi munosibligini isbotlashga urinishi, uning Turkiy tilli davlatlar kengashida o'zining o'rni va ro'li paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Turkiy tilli davlatlar kengashi Turkiya, Ozarbayjondan tashqari, Markaziy Osiyodagi o'z qardoshlarining ham mustahkam aloqalar olib borishiga zamin yaratmoqda.

2021-yil noyabr oyida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining navbatdagi sammitida kengashning nomi "Turkiy davlatlar tashkiloti" ga o'zgarishi va uning ilk sammiti 2022-yil Samarqandda bo'lib o'tgan, jahon siyosiy jarayonlarida yangi bosqich bosqlanayotganligidan dalolat beradi.

Turkiy davlatlarning bir tashkilot negizida birlashuvi, ularning turli xalqaro o'yinlardan muhofazalanishlariga, o'zaro ichki va tashqi ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy aloqalarini yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

Xalqaro Munosabatlardagi liderlar bo'lgan AQSH, Rossiya va Xitoy singari davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasiga xavfi sezilarli tarzda kamayishiga, ASEAN, YI singari tuzilmalarga muqobil bir raqobatchi paydo bo'lishiga, qadimdan shakllanib kelgan urf-odat, an-analar va til o'ziga xosligini saqlab qolinishiga Turkiy tilli davlatlarining bir tashkilot doirasida faol ishtirok etishlari hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Farkhod Tolipov (2021) Uzbekistan-Turkey: Pending the Outcomes of Strategic Relationships.
2. Marlene Laruelle (2013) Foreign policy and identity in Central Asia. Carnegie Endowment for International Peace.

3. SAĞ, M., Türk Estetiği ve Kimliğimiz. Türk Kimliği. Özdemir, Ç. Ed. İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2009.
4. Türkiye-Orta Asya Ülkeleri İlişkileri // [Сайт Министерства иностранных дел ТР]. - Electronic text data. - Mode of access: <http://www.mfa.gov.tr/turkiye-orta-asya-ulkeleri-iliskileri.tr.mfa>
5. Лаумулин М. Турция и Центральная Азия [Электронный ресурс]. URL: <http://carnegie.ru/publications/?fa=49758>